

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'LCHOV BIRLIKLARINING KOGNITIV-DISKURSIV TALQINI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIDA

Djabbarov Sherzod Xalikulovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: sjabborov1980@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1374-6843>

Annotatsiya.

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklari kognitiv-semantik hamda diskursiv nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'lchov birligini tayyor metrologik nom sifatida emas, balki borliqdagi miqdoriy farqlarni idrok etish, qiyoslash, kategoriyalash, jamiyat tomonidan me'yorlash, konseptuallashtirish va tilda ifodalash bilan bog'liq jarayonlarning natijasi sifatida yoritishdan iborat. Sifat yondashuviga tayangan holda ingliz tilidagi *meter, mile, yard, foot, inch* hamda o'zbek tilidagi *metr, kilogramm, qarich, qadam, gaz, tanob* birliklari, shuningdek, *to go the extra mile* va *bir qarich yer* kabi ko'chma qo'llanishlar tahlilga jalb qilindi. Rosch, Lakoff, Langacker, Fillmore, Kubryakova va boshqa olimlarning kategoriyalash, prototipiklik, konseptuallashtirish va freym semantikasiga oid qarashlari nazariy asos sifatida olindi. Natijalar o'lchov birliklarida universal kognitiv ehtiyoj bilan milliy-madaniy tajriba o'zaro tutashishini ko'rsatadi. Maqolada obyektiv xususiyatlar, idrok va qiyoslash, kognitiv kategoriyalash, madaniy standartlashtirish, lisoniy konseptuallashtirish hamda diskursiv voqelanishni ketma-ket e'tiborga olishga asoslangan tahliliy yo'nalish taklif etiladi. Ushbu taklif qat'iy chiziqli tuzilma sifatida emas, balki o'lchov ma'nosining shakllanishi va keyingi semantik taraqqiyotini izohlashga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq tahlil bosqichlari sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: o'lchov birligi, kognitiv semantika, kategoriyalash, prototipiklik, konseptuallashtirish, freym semantikasi, standartlashtirish, diskurs, ingliz tili, o'zbek tili.

КОГНИТИВНО-ДИСКУРСИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ: В СОПОСТАВЛЕНИИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Джаббаров Шерзод Халикулович

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье проводится сравнительный анализ единиц измерения в английском и узбекском языках с когнитивно-семантической и дискурсивной точек зрения. Основная цель исследования заключается в рассмотрении единицы измерения не как готового метрологического наименования, а как результата процессов восприятия и сопоставления количественных различий действительности, их категоризации, общественного нормирования, концептуализации и языкового выражения. На основе качественного подхода анализируются английские единицы *meter, mile, yard, foot, inch* и узбекские *metr, kilogramm, qarich, qadam, gaz, tanob*, а также их переносные употребления, такие как *to go the extra mile* и *bir qarich yer*. Теоретическую основу исследования составляют положения Rosch, Lakoff, Langacker, Fillmore, Kubryakova и других исследователей о категоризации, прототипичности, концептуализации и фреймовой семантике. Результаты показывают, что в единицах измерения универсальные когнитивные потребности взаимодействуют с национально-культурным опытом. В статье предлагается аналитический подход, предусматривающий последовательное рассмотрение объективных характеристик, восприятия и сравнения, когнитивной категоризации, культурной стандартизации, языковой концептуализации и дискурсивной реализации. Предлагаемый подход трактуется не как строго линейная структура, а как совокупность взаимосвязанных этапов анализа, позволяющих объяснить формирование значения единиц измерения и их последующее семантическое развитие.

Ключевые слова: единица измерения, когнитивная семантика, категоризация, прототипичность, концептуализация, фреймовая семантика, стандартизация, дискурс, английский язык, узбекский язык.

COGNITIVE-DISCURSIVE INTERPRETATION OF UNITS OF MEASUREMENT: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK

Abstract.

The article presents a comparative analysis of units of measurement in English and Uzbek from cognitive-semantic and discursive perspectives. The main objective of the study is to examine a unit of measurement not as a ready-made metrological term, but as the result of processes involving the perception and comparison of quantitative differences in reality, categorization, social standardization, conceptualization, and linguistic representation. Using a qualitative approach, the study analyzes the English units *meter, mile, yard, foot, and inch* and the Uzbek units *metr, kilogramm, qarich, qadam, gaz, and tanob*, as well as figurative uses such as *to go the extra mile* and *bir qarich yer*. The theoretical framework draws on the views of Rosch, Lakoff, Langacker, Fillmore, Kubryakova, and other scholars concerning categorization, prototypicality, conceptualization, and frame semantics. The findings demonstrate that units of measurement represent an intersection between universal cognitive needs and culturally specific experience. The article proposes an analytical approach based on the sequential consideration of objective properties, perception and comparison, cognitive categorization, cultural standardization, linguistic conceptualization, and discursive realization. This approach is interpreted not as a strictly linear structure, but as a set of interconnected analytical stages that help explain the formation of measurement meaning and its subsequent semantic development.

Keywords: unit of measurement, cognitive semantics, categorization, prototypicality, conceptualization, frame semantics, standardization, discourse, English, Uzbek.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda yuz bergan nazariy burilish lisoniy ma'noni tushuntirish usullarini sezilarli darajada kengaytirdi. Struktur yondashuv til birliklarini, avvalo, tizim ichidagi munosabatlar orqali tavsiflashga intilgan bo'lsa, kognitiv tilshunoslik ma'no shakllanishida insonning idroki, tajribasi, kategoriyalashi va konseptuallashtirish faoliyatiga alohida e'tibor qaratdi (Lakoff, 1987; Langacker, 1987; Evans & Green, 2006). O'lchov birliklari aynan shu nuqtada qiziqarli tadqiqot obyekti aylanadi. Chunki *metr, mil, dyum, qarich, qadam* yoki *tanob* singari birliklar tashqi olamdagi miqdoriy xususiyatlarni ifodalasa-da, ularning o'zi tabiatda tayyor holda mavjud emas. Tashqi olamda *uzunlik, og'irlik, masofa, maydon, hajm* va *vaqt* kabi o'lchanishi mumkin bo'lgan xususiyatlar mavjud; ularni qaysi mezon bilan o'lchash, qanday nomlash va jamiyat miqyosida qabul qilish esa insonning bilish faoliyati hamda tarixiy tajribasi bilan bog'liq.

Mazkur masala o'lchashni obyektiv hodisa bilan kognitiv faoliyat o'rtasidagi munosabat sifatida ko'rishni talab qiladi. Kantning makon va vaqtni inson tajribasini tartibga soluvchi shakllar sifatida talqin qilishi miqdoriy munosabatlarning ham idrok orqali tashkil etilishini tushunishga metodologik zamin yaratadi (Kant, 1998). Keyinchalik Cassirer tilni insonning olamni ramziy tarzda tartibga solish vositalaridan biri deb qarab, madaniy tajribaning lisoniy shakllarga singishini ko'rsatdi (Cassirer, 1955). Bu qarashlar o'lchov birliklarini faqat metrologik belgi deb emas, balki muayyan jamiyatning borliqni tartibga solish tajribasini saqlovchi lisoniy vosita sifatida ko'rish imkonini beradi. Shu sababli tarixan faol bo'lgan ayrim birliklar amaliy o'lchashdagi mavqeini yo'qotgan bo'lsa ham, tilda, badiiy xotirada yoki kundalik iboralarda yashashda davom etadi.

O'lchov birliklariga doir tadqiqotlarda, odatda, bir necha yo'nalish ajralib turadi: metrologik va terminologik tavsif, tarixiy-etimologik izoh, leksik-semantik tahlil, frazeologik qo'llanish hamda tarjima masalalari. Bu yo'nalishlarning har biri muhim, biroq o'lchov birligi qanday qilib miqdoriy tajribadan lisoniy birlikka aylanishi va keyinchalik turli diskurslarda qanday qo'shimcha mazmun kasb etishini bir butun jarayon sifatida tushuntirish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Tadqiqotimizda ana shu bo'shliqni o'lchov birliklarining shakllanishi va qo'llanishini o'zaro bog'liq kognitiv, lisoniy hamda diskursiv jarayonlar yaxlitligida tahlil qilish orqali to'ldirishga harakat qilamiz. Bunda tayyor so'zdan boshlash emas, balki o'lchashga ehtiyoj tug'dirgan miqdoriy farq, uni idrok etish, qiyoslash, umumlashtirish, me'yorlash va nomlash jarayonlarini ham hisobga olish muhim deb qaraladi.

Maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida o'lchov birliklarining kognitiv-semantik hamda diskursiv xususiyatlarini aniqlash, umumiy kognitiv jarayonlar bilan milliy-madaniy tajriba o'rtasidagi munosabatni ko'rsatishdan iborat. Shu maqsadda, avvalo, o'lchanadigan obyektiv xususiyat bilan o'lchov birligini farqlash; kategoriyalash, prototipiklik, konseptuallashtirish va freym semantikasi haqidagi nazariy qarashlarning o'lchov leksikasini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini baholash; standart va an'anaviy birliklarning madaniy xususiyatlarini qiyoslash; o'lchov ma'nosining ko'chma va baholovchi qo'llanishlarga kengayishini izohlash vazifalari nazarda tutiladi. Tadqiqotning asosiy yangiligi yangi metrologik tasnif yaratishda emas, balki o'lchov leksikasini idrok, kognitiv tartibga solish, ijtimoiy me'yorlash, lisoniy ifoda va diskursiv taraqqiyot o'zaro bog'langan hodisalar tizimi sifatida talqin qilishga urinishda namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarining qiyosi bu masalani yanada aniqroq ko'rsatadi. Masofa yoki uzunlikni o'lchash ehtiyoji har ikki til jamoasi uchun umumiy bo'lsa-da, tarixan tanlangan mezonlar bir xil bo'lmagan. Ingliz tilida *foot, inch, yard, mile* kabi birliklar uzoq vaqt davomida muayyan o'lchash an'alarini ifodalagan bo'lsa, o'zbek tilida *qarich, qadam, gaz, tanob* kabi birliklar kundalik turmush, savdo, hunarmandchilik va yer o'lchash amaliyoti bilan bog'liq holda yashagan.

Zamonaviy metrik tizim *meter/metr*, *kilogram/kilogramm* kabi birliklarning umumiy standart sifatida keng qo'llanishiga olib keldi, ammo bu jarayon tarixiy birliklarning semantik va madaniy xotirasini butunlay yo'q qilgani yo'q. Ana shu davomiylik o'lchov birliklarining kognitiv-diskursiv tabiatini ochishda muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

2. MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotimizda konseptual-semantik tahlilga tayangan sifat yondashuvidan foydalanishga harakat qildik. Material tanlashda birliklarning statistik qo'llanish chastotasini aniqlashni asosiy maqsad sifatida qo'ymadik; aksincha, ularning semantik, kognitiv va madaniy xususiyatlarini turli nazariy qarashlar asosida qiyosiy yoritish imkoniyatiga e'tibor qaratdik. Shu sababli tahliliy materialni miqdoriy ko'rsatkichlarni qayd etuvchi korpus sifatida emas, balki o'lchov ma'nosining shakllanishi va turli kontekstlarda kengayishini kuzatish imkonini beruvchi misollar asosida shakllantirdik. Bunday tanlov tadqiqot savolining mohiyatidan kelib chiqadi: biz uchun birlikning qanchalik ko'p uchrashidan ko'ra, obyektiv miqdoriy munosabatning inson tafakkurida qanday anglanishi, qiyoslanishi, tartibga solinishi va lisoniy shakl kasb etishi muhimroqdir.

Tahliliy material tarkibiga zamonaviy xalqaro standart birliklar bilan bir qatorda tarixiy va milliy-madaniy qatlamlga mansub an'anaviy o'lchovlarni ham kiritishga harakat qildik. Ingliz tili materialidan *meter*, *yard*, *foot*, *inch*, *mile*, o'zbek tilidan esa *metr*, *kilogramm*, *qarich*, *qadam*, *gaz*, *tanob* birliklarini tanlab oldik. Bu birliklar, bir tomondan, zamonaviy standart o'lchash amaliyotini, ikkinchi tomondan esa tana tajribasi, kundalik turmush va tarixiy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq o'lchash usullarini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, o'lchov ma'nosining ko'chma va baholovchi mazmunga kengayishini tahlil qilish maqsadida ingliz tilidagi *to go the extra mile* hamda o'zbek tilidagi *bir qarich yer* ifodalarini ham qiyoslashga jalb qildik. Ushbu misollar to'g'ridan-to'g'ri son qiymatidan tashqarida o'lchov tasavvuri qanday semantik vazifa bajarishini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda kognitiv tilshunoslik doirasidagi kategoriyalash, prototipiklik, konseptuallashtirish, freym semantikasi va bilimning lisoniy ifodalanishiga oid yetakchi qarashlarga tayandik. Roschning (1978) kategoriyalarning tajribaviy asosda shakllanishi haqidagi xulosalari, Lakoffning (1987) prototipiklik va tana tajribasiga doir qarashlari, Langackerning (1987, 2008) lisoniy ma'noni konseptuallashtirish bilan bog'liq holda izohlashi, Fillmorning (1982) freym semantikasi hamda Kubryakovaning (2004) til va konseptual bilim munosabatiga oid fikrlari atroflicha tahlil qilindi. Evans va Greenning (2006) kognitiv tilshunoslik bo'yicha umumlashtiruvchi tadqiqoti, shuningdek, Safarovning (2006) o'zbek tilshunosligidagi kognitiv yondashuvlarga doir qarashlari nazariy tushunchalarni izohlashda asosiy manbalardan biri bo'ldi.

Tahlilda konseptual-semantik, qiyosiy, kontekstual va freym tahlili usullaridan kompleks foydalanildi. Konseptual-semantik tahlil orqali o'lchov birligining aniq miqdoriy mazmuni va undan rivojlangan qo'shimcha ma'nolar o'rtaidagi aloqa kuzatildi. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy kognitiv ehtiyoj hamda tilga xos tarixiy-madaniy xususiyatlarni farqlashga xizmat qildi. Freym tahlili birlikni tushunish uchun zarur bo'lgan vaziyat, ishtirokchi, obyekt, tayanch mezon va madaniy bilimlarni aniqlashga yordam berdi (Fillmore, 1982). Diskursiv tahlilda esa bir xil birlikning ilmiy, texnik, tarixiy, badiiy, publitsistik va kundalik nutqda turlicha mazmun kasb etishi e'tiborga olindi.

3. NATIJALAR

3.1. O'lchash va o'lchov birligi: obyektiv xususiyatdan lisoniy ifodagacha

Tahlil natijalari, avvalo, o'lchanadigan xususiyat bilan o'lchov birligini bir-biridan farqlash zarurligini ko'rsatadi. Masofa, uzunlik, massa yoki hajm obyektiv borliqda insondan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin, biroq *meter*, *mile*, *qarich* yoki *tanob* kabi birliklar mazkur xususiyatlarning o'zi emas. Ular miqdoriy farqni aniqlash va uni boshqalarga tushunarli tarzda yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan tarixiy-lisoniy vositalardir. Shu ma'noda o'lchov birligi obyektiv xususiyatning oddiy nusxasi emas, balki inson tomonidan tanlangan mezon asosida tartibga solingan va nomlangan ifodasidir. Langackerning ma'noning konseptuallashtirish orqali shakllanishi haqidagi qarashi bu farqni tushuntirishda ayniqsa muhim: bir xil fizik masofa turli til va madaniyatlarda turli birliklar yordamida ifodalanishi mumkin (Langacker, 1987).

Bu holat o'lchashning o'zi ham bilish faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Inson dastlab farqni sezadi, so'ng uni boshqa obyekt yoki oldindan ma'lum mezon bilan qiyoslaydi. Takroriy qiyoslash barqaror tajriba hosil qilgach, jamiyatda o'lchashning umumiy usullari shakllana boshlaydi. Demak, o'lchashni faqat tayyor birlikdan foydalanish sifatida emas, balki miqdoriy farqni anglash va tartibga solish jarayoni sifatida ko'rish maqsadga muvofiq. Johnson (1987) va Lakoff (1987) ta'kidlagan tana tajribasining kognitiv tuzilishdagi o'rni ayniqsa an'anaviy o'lchovlarda yaqqol ko'rinadi: *qarich*, *qadam* yoki *foot* kabi birliklar inson tanasi va uning harakatidan kelib chiqqan mezonlar bilan bog'langan.

Nazarimizda, o'lchov birligining lisoniy maqomini aniqlashda uch jihatni birgalikda hisobga olish lozim. Birinchisi — o'lchanadigan obyektiv xususiyat; ikkinchisi — shu xususiyatni qiyoslashga imkon beradigan kognitiv mezon; uchinchisi — jamiyatda barqarorlashgan lisoniy ifoda. Bu uch jihatning bir-biriga qo'shilib ketishi ko'pincha birlikning go'yoki tabiatning o'zida mavjud bo'lgan aniq nomi degan tasavvurni tug'diradi. Aslida esa birlikning qiymati ham, nomi ham tarixiy kelishuv va amaliy ehtiyoj asosida mustahkamlanadi. Shu bois turli o'lchov tizimlarining mavjudligi o'lchanadigan reallikning turlicha ekanini emas, balki uni tartibga solish usullarining tarixiy va madaniy jihatdan farqlanishini ko'rsatadi.

3.2. Kategoriyalash va prototipiklikning o'lchov leksikasidagi o'rni

O'lchov birliklarining shakllanishida kategoriyalash jarayoni markaziy o'rin egallaydi. Rosch (1978) kategoriyalarni qat'iy va teng huquqli a'zolar yig'indisi sifatida emas, balki inson tajribasida turli darajada tipik bo'lgan birliklar atrofida shakllanuvchi tuzilma sifatida izohlaydi. O'lchov leksikasiga tatbiq etilganda, bu yondashuv zamonaviy standart birliklar bilan tarixiy yoki tor doirada qo'llanadigan birliklarning bir xil funksional mavqega ega emasligini

tushuntiradi. Masalan, zamonaviy ilmiy-texnik nutqda *meter/metr* uzunlik kategoriyasining eng faol va me'yoriy birliklaridan biri bo'lsa, *yard*, *gaz* yoki *qarich*ning qo'llanish doirasi ancha cheklangan. Biroq bu cheklanganlik ularning semantik qimmatini yo'qotmaydi; aksincha, tarixiy, badiiy yoki madaniy kontekstda ular kuchliroq mazmuniy yuk olishi mumkin.

Lakoff (1987) prototipiklikni inson tajribasi, tana sezgisi va madaniy amaliyot bilan bog'laydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'lchov kategoriyasining markazi doimiy emas: u qo'llanish sohasi va tarixiy davrga qarab o'zgarishi mumkin. Hozirgi rasmiy o'lchashda *metr* markaziy o'rin tutsa, an'anaviy dehqonchilik yoki tarixiy matnni talqin qilishda *tanob*, *gaz*, *qarich* kabi birliklar muhimroq bo'lib chiqadi. Demak, prototipiklikni faqat zamonaviy statistik faollik bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Muayyan birlikning kategoriya ichidagi salmog'i uning qaysi faoliyat va diskurs doirasida qo'llanayotganiga ham bog'liq.

Kategoriyalash va standartlashtirishni bir jarayon deb qabul qilish ham to'g'ri emas. Kategoriyalash miqdoriy tajribaning tafakkurda tartibga solinishini ifodalasa, standartlashtirish shu tajriba uchun jamiyat tomonidan tan olingan barqaror mezonning shakllanishini bildiradi. Masalan, "uzun-qisqa" yoki "og'ir-yengil" kabi qarama-qarshiliklar standart birliklarsiz ham idrok etiladi va kategoriyalanadi. Biroq aniq o'lchash uchun ma'lum miqdorni qayta-qayta bir xil tarzda taqqoslashga imkon beradigan tayanch mezon zarur bo'ladi. Shu jihatdan kategoriyalash kognitiv tayyorgarlikni, standartlashtirish esa ijtimoiy-amaliy barqarorlikni ta'minlaydi.

3.3. An'anaviy o'lchovlarda antropotsentrik asos

An'anaviy o'lchov birliklarida inson tanasining tabiiy mezon sifatidagi o'rni yaqqol ko'rinadi. O'zbek tilidagi *qarich* va *qadam*, ingliz tilidagi *foot* va *inch* kabi birliklar turli tarixiy taraqqiyot yo'lidan o'tgan bo'lsa-da, ularning dastlabki mazmunida tana yoki tana bilan bog'liq amaliy tajriba muhim o'rin tutadi. Bu holat o'lchashning antropotsentrik tabiatini ko'rsatadi: inson atrofdagi fazoni dastlab o'ziga eng yaqin va takror qo'llash mumkin bo'lgan mezonlar orqali baholagan. *Qarich* qo'lining yoyilishiga, *qadam* yurish harakatiga tayansa, *foot* birlik nomining tarixiy asosida oyoq o'lchovi bilan bog'liq tasavvur turadi. Bunday birliklarda inson tanasi miqdorni baholashning tabiiy tayanchiga aylanadi.

Embodied cognition yondashuvida insonning bilish jarayoni tana tajribasi bilan uzviy bog'liq deb qaraladi; bunda bilimning shakllanishida sezgi, harakat va bevosita jismoniy tajriba muhim o'rin tutadi (Johnson, 1987; Lakoff, 1987). O'lchov birliklari bu fikrni konkret materialda ko'rsatadi. Makon va masofani aniqlashda qadam tashlash, qo'lni yoyish, barmoq oralig'ini o'lchash singari harakatlar inson uchun abstrakt son tizimidan oldingi tajribaviy asos bo'lgan. Biroq bu birliklarni zamonaviy standartlar bilan bir xil aniqlik darajasida ko'rish to'g'ri emas. Tana o'lchamlari shaxsga qarab o'zgarishi mumkin, shu sababli tarixiy taraqqiyot davomida aniq va qayta takrorlanadigan o'lchashga bo'lgan ehtiyoj standart birliklarning shakllanishi va keng qo'llanishiga olib kelgan.

An'anaviy o'lchov birliklari nafaqat tarixiy metrologik tizim haqida tasavvur beradi, balki xalqning makon va miqdorni idrok etish usullari hamda kundalik faoliyatda shakllangan o'lchash mezonlarini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, *tanob*ning tarixiy qo'llanishi yer maydoni va dehqonchilik amaliyoti bilan bog'liq tasavvurlarni saqlasa, *gaz* chiziqli o'lchashning an'anaviy shakllaridan birini eslatadi. O'zbek tilining izohli va etimologik lug'atlarida bunday birliklarning tarixiy qo'llanishi qayd etilishi ularning bugungi tilda madaniy xotira unsuri sifatida ham yashashini ko'rsatadi (Madvaliyev, 2006–2008; Rahmatullayev, 2000).

3.4. Standartlashtirish va milliy-madaniy farqlanish

Standartlashtirish o'lchov birliklarining ijtimoiy hayotdagi barqarorligini ta'minlovchi muhim bosqichdir. Inson ma'lum miqdoriy farqni sezishi va qiyoslashi mumkin, ammo bu qiyoslash umumiy aloqa, savdo, ilm-fan yoki boshqaruvda qo'llanishi uchun barcha tomonidan tan olinadigan mezon zarur bo'ladi. Zamonaviy metrik tizimning keng tarqalishi ana shunday umumiy mezonga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. *Meter/metr* va *kilogram/kilogramm* singari birliklar bugungi rasmiy, ilmiy va texnik amaliyotda yuqori darajadagi aniqlikni ta'minlaydi. Ularning ustunligi faqat lisoniy omil bilan emas, balki xalqaro ilmiy, iqtisodiy va institutsional me'yorlar bilan ham belgilanadi.

Biroq standartlashtirish eski birliklarni til tizimidan avtomatik ravishda chiqarib tashlamaydi. O'zbek tilida *qarich*, *qadam*, *gaz*, *tanob*, ingliz tilida *yard*, *foot*, *inch*, *mile* singari birliklar turli darajada faol bo'lib qolmoqda. Ayrimlari kundalik hayotda yoki muayyan mamlakatlarning rasmiy amaliyotida ishlatiladi, ayrimlari esa tarixiy va badiiy matnlarda ko'proq uchraydi. Muhimi, yangi standartning joriy etilishi eski birlik bilan bog'langan tasavvur, ibora va madaniy xotirani bir zumda yo'q qilmaydi. Shu sababli o'lchov leksikasining zamonaviy holatida xalqaro me'yor bilan tarixiy-madaniy qatlam yonma-yon mavjud bo'lishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash umumiy kognitiv ehtiyoj bilan tarixiy-madaniy tanlov o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Har ikki til jamoasi uzunlik, masofa, massa va maydonni o'lchashga ehtiyoj sezgan; farq esa qaysi tayanch mezonlar tarixan barqarorlashgani va ular qanday lisoniy shakl olganida namoyon bo'ladi. Shu sababli har bir ingliz birligiga o'zbek tilidan aniq tarixiy muqobil yoki har bir o'zbek birligiga ingliz tilidan tayyor ekvivalent izlash ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Qiyoslashda birliklarning son qiymati bilan bir qatorda, ularning qo'llanish sohasi, tarixiy vazifasi va madaniy mazmuni ham hisobga olinishi kerak.

1-jadval. Ingliz va o'zbek o'lchov birliklarining qiyosiy xususiyatlari

Sohasi	Ingliz cha misol	O'zbekc ha misol	Kognitiv-diskursiv xususiyati
--------	------------------------	---------------------	-------------------------------

Sohasi	Ingliz cha misol	O'zbek ha misol	Kognitiv-diskursiv xususiyati
Zamonaviy standart uzunlik Tana	<i>meter</i>	<i>metr</i>	Xalqaro metrik me'yor; ilmiy, texnik va rasmiy nutqda aniq miqdorni ifodalash.
tajribasiga bog'liq o'lchov	<i>foot, inch</i>	<i>qarich, qadam</i>	Inson tanasi va kundalik tajribaga tayangan tarixiy o'lchash usullarini aks ettiradi.
An'anaviy chiziqli o'lchov	<i>yard</i>	<i>gaz</i>	Tarixiy-amaliy ehtiyojlar asosida barqarorlashgan birlik; madaniy va tarixiy matnlarda alohida ahamiyat kasb etadi.
Masofa	<i>mile</i>	<i>qadam (kontekst ga ko'ra)</i>	Yo'l va harakat haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq; ko'chma ma'no hosil qilish imkoniyatlari mavjud.
Yer maydoni	—	<i>tanob</i>	Dehqonchilik, yer o'lchash va tarixiy xo'jalik munosabatlari o'ld madaniy ma'lumotni saqlaydi.
Ko'chma qo'llanish	<i>to go the extra mile</i>	<i>bir qarich yer</i>	Dastlabki o'lchov mazmuni qo'shimcha sa'y-harakat, kichiklik, baho va qadriyat kabi ma'nolar uchun semantik asos bo'ladi.

3.5. Lisoniy konseptuallashtirish va freym semantikasi

Langackerning kognitiv grammatikasi o'lchov birligining lisoniy ma'nosi qanday shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, lisoniy birlik shakl va konseptual mazmunning o'zaro birligidan tashkil topadi; ma'no tashqi reallikning passiv nusxasi emas, balki insonning uni qanday anglashiga bog'liq (Langacker, 1987, 2008). O'lchov leksikasida bu holat ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi: *meter* yoki *qarich*ning ma'nosi faqat ma'lum son qiymatini bilish bilan cheklanmaydi. Birlikning qanday vaziyatda, qaysi obyektga nisbatan va qanday kommunikativ maqsadda qo'llanayotgani ham uning mazmunini belgilaydi. Shu sababli bir xil birlik ilmiy matnda aniq o'lchov vositasi, badiiy matnda esa obrazning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

Freym semantikasi leksik ma'noni alohida so'z doirasida emas, balki u bilan bog'liq bilimlar tizimi va qo'llanish muhiti bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Fillmore (1982) ta'kidlaganidek, muayyan birlikni to'liq tushunish uchun u bilan bog'liq tipik vaziyat, ishtirokchilar, obyektlar va munosabatlarni ham hisobga olish zarur. O'lchov birliklariga nisbatan buni "o'lchash vaziyati" orqali ko'rish mumkin: unda o'lchovchi shaxs, o'lchanayotgan obyekt, qiyoslash asosi, tanlangan mezon va natijaning lisoniy ifodasi qatnashadi. Masalan, *tanob* so'zini tarixiy matnda tushunish uchun uning faqat miqdoriy qiymatini emas, balki yer maydoni, dehqonchilik va xo'jalik amaliyoti bilan bog'liqligini ham bilish zarur bo'lishi mumkin.

Freym yondashuvi zamonaviy va tarixiy birliklar o'rtasidagi semantik farqni ham aniqroq ko'rsatadi. *Metr* ilmiy-texnik kontekstda standart, aniqlik va hisoblash bilan bog'liq bilimlarni faollashtirsa, *qarich* yoki *tanob* tarixiy-madaniy kontekstda kundalik tajriba, an'anaviy turmush va muayyan davr muhitini eslatadi. Demak, o'lchov birligini tushunish ko'pincha uning son qiymatini bilishdan ko'ra kengroq bilimni talab etadi. Bu xulosa Cassirerning til va madaniyat aloqasi haqidagi qarashlari bilan hamohang bo'lib, til birliklarida jamiyatning tarixiy tajribasi ramziy tarzda saqlanishini ko'rsatadi (Cassirer, 1955).

3.6. Diskursiv voqelanish va ma'no kengayishi

Bir xil o'lchov birligi turli diskurslarda turlicha mazmun va vazifa kasb etishi mumkin. Ilmiy yoki texnik matnda uning aniq miqdoriy qiymati hamda standartga mosligi ustun bo'lsa, tarixiy-badiiy asarda birlikning davr ruhini va milliy-madaniy muhitni aks ettirish xususiyati muhimroq bo'lishi mumkin. Publitsistik yoki kundalik nutqda esa o'lchov birligining aniq son qiymati ikkinchi darajaga tushib, baholovchi, darajalovchi yoki ramziy mazmun kuchayadi. Demak, o'lchov ma'nosi faqat lug'aviy yoki metrologik qiymat bilan emas, balki qo'llanayotgan diskurs turi va kommunikativ maqsad bilan ham belgilanadi.

O'lchov birliklarining ko'chma ma'noda qo'llanishini ularning "haqiqiy" ma'nosidan uzilish deb baholash biryoqlama bo'ladi. Kognitiv semantika bunday ma'no kengayishini mavjud tajriba va konseptual bog'lanishlar asosida yuzaga keladigan tabiiy hodisa sifatida tushuntiradi. Ingliz tilidagi *to go the extra mile* ifodasida yo'l va masofa haqidagi konkret tasavvur qo'shimcha sa'y-harakat, qat'iyat va belgilangan me'yordan ortiq harakat qilish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Lakoff va Johnsonning (1980) konseptual metafora haqidagi qarashlari konkret jismoniy tajribaning mavhum mazmunlarni tushunish uchun tayanch bo'lishini ko'rsatadi. Bu yerda *mile* o'zining o'lchov tabiatini butunlay yo'qotmaydi; aksincha, "odatdagi masofadan ortiq" degan tasavvur baholovchi ma'noga ko'chadi.

O'zbek tilidagi *bir qarich yer* birikmasida ham shunga o'xshash, biroq milliy-madaniy jihatdan o'ziga xos jarayon kuzatiladi. *Qarich* antropotsentrik tabiatga ega bo'lgan an'anaviy o'lchov birligi bo'lib, unda inson tanasi miqdorni aniqlash va baholashning tabiiy mezoni sifatida namoyon bo'ladi. *Bir qarich yer* ifodasida esa aniq o'lchashdan ko'ra juda kichik yer maydoni, cheklangan makon, ayrim kontekstlarda esa qadrlil hudud yoki unga daxldorlik ma'nosi

kuchayishi mumkin. Dastlabki o'lchov mazmuni yo'qolmaydi; u kichiklik va chegaralanganlikni anglatadigan semantik asosga aylanadi. Shunday qilib, o'lchov leksikasi aniq miqdorni ifodalash bilan birga, badiiy, baholovchi va madaniy mazmunlarni ham shakllantira oladi.

Ko'chma ma'no hosil qilish imkoniyatlari tillar o'rtasida doim ham to'liq mos kelmaydi. Har bir ingliz o'lchov birligining o'zbek tilida yoki har bir o'zbek birligining ingliz tilida tayyor obrazli muqobili mavjud deb hisoblash noto'g'ri. Idiomatik va obrazli ma'nolar muayyan tilning tarixiy taraqqiyoti va madaniy tajribasi asosida shakllanadi. Shu sababli *to go the extra mile* ifodasining ma'nosini so'zma-so'z birliklar bilan almashtirish uning ingliz tilidagi barqaror baholovchi mazmunini to'liq bermasligi mumkin; *bir qarich yer* esa o'zbek tilidagi tana o'lchovi va yerga oid tasavvurlar bilan bog'langan. Tarjimada son jihatidan moslik bilan bir qatorda konseptual va madaniy vazifani hisobga olish zarurligi aynan shundan kelib chiqadi (Wierzbicka, 1992; House, 2015).


4. MUHOKAMA

Ingliz va o'zbek tillaridagi materiallarning qiyosi o'lchov leksikasida umumiy kognitiv asos bilan milliy-madaniy xususiyatlar bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Umumiy jihatdan har ikki tilda uzunlik, massa, masofa, maydon va hajm kabi miqdoriy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar mavjud. Ularning shakllanishi farqni sezish, qiyoslash, kategoriyalash va barqaror mezonga tayanish kabi umumiy bilish jarayonlari bilan bog'liq. Farq esa tarix davomida qaysi mezonlar amaliy jihatdan qulay deb topilgani, qanday nomlar tilda mustahkamlangani va qaysi birliklar madaniy xotirada saqlanib qolganida ko'rinadi. Shu jihatdan o'lchov tizimi universal ehtiyojning til va madaniyatga xos yechimini ifodalaydi.

Tahlil o'lchov birliklarining bir necha qatlamli tabiatini ham tasdiqlaydi. Birinchi qatlamda obyektiv miqdoriy xususiyat turadi; ikkinchi qatlamda bu xususiyatni idrok etish va qiyoslash jarayoni yuz beradi; keyingi bosqichlarda esa takroriy tajriba kategoriyalanadi, jamiyatga qulay mezon barqarorlashadi, u konseptual mazmun kasb etib, tilda muayyan nom orqali ifodalanadi. Birlik tilda mustahkamlangach, u faqat dastlabki o'lchash vazifasi bilan cheklanib qolmaydi. Diskursda takroriy qo'llanish, metaforik aloqalar, tarixiy xotira va baholovchi ehtiyojlar uning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli o'lchov birligini faqat lug'atdagi ta'rif yoki sonli ekvivalent orqali tushuntirish uning lisoniy hayotini to'liq aks ettirmaydi.

Nazariy manbalarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ularning har biri o'lchov ma'nosining muayyan tomonini chuqurroq tushuntiradi. Rosch va Lakoff kategoriyalash va prototipiklikning tajribaviy asosini ochib beradi; Langacker lisoniy ma'no bilan konseptuallashtirish aloqasini ko'rsatadi; Fillmore birlikni vaziyat va fon bilimlari bilan bog'lash imkonini beradi; Kubryakova esa konseptual bilimning tilda obyektivlashuvini yoritadi. Ushbu qarashlarni bir-biriga singdirib yuborishdan ko'ra, ularning izoh berish doirasini saqlagan holda, bir masalaning turli tomonlarini yorituvchi nazariy tayanch sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv nazariyalar o'rtasidagi farqni kamaytirmaydi, aksincha, o'lchov leksikasining murakkab tabiatini ko'rishga yordam beradi.

Shu asosda o'lchov birliklarini kognitiv-diskursiv tahlil qilishda oltita o'zaro bog'liq yo'nalishni ketma-ket e'tiborga olishni taklif qilamiz: obyektiv xususiyatlar, idrok va qiyoslash, kognitiv kategoriyalash, madaniy standartlashtirish, lisoniy konseptuallashtirish va diskursiv voqelanish. Bu taklifni qat'iy chiziqli taraqqiyot sxemasi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Uning vazifasi tahlilchi uchun o'lchov ma'nosining turli qatlamlarini ajratib ko'rsatish va ilmiy savollarni aniqroq qo'yishga yordam berishdir. Tarixiy taraqqiyotda ayrim jarayonlar bir vaqtning o'zida kechishi, diskursdagi yangi qo'llanishlar esa avvalgi konseptual mazmunning qayta talqin qilinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



1-rasm. O'lchov birliklarini kognitiv-diskursiv tahlil qilishda taklif etilayotgan yo'nalishlar

Taklif etilayotgan tahliliy ketma-ketlikning amaliy ahamiyati shundaki, u turli ilmiy yo'nalishlarning tadqiqot savollarini farqlashga yordam beradi. Tarixiy tilshunos muayyan mezonning qachon va qanday sharoitda barqarorlashganiga e'tibor qaratishi mumkin; kognitiv semantika miqdoriy tajribaning qanday konseptuallasuvi va ko'chma ma'nolarga kengayishini o'rganadi; freym tahlili birlik bilan birga faollashadigan vaziyat va madaniy bilimlarni

aniqlaydi; diskurs tahlili esa ilmiy, tarixiy, badiiy yoki publitsistik matnda qaysi ma'no qatlamlari ustunlashishini ko'rsatadi. Shu tariqa, bir birlik haqida turli fan yo'nalishlari tomonidan beriladigan xulosalar bir-biriga zid emas, balki o'lchov hodisasining turli qirralarini yorituvchi natijalar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mazkur yondashuv tarjimashunoslik uchun ham muhim. Texnik tarjimada o'lchov qiymatini boshqa tizimga aniq o'girish asosiy talab bo'lishi mumkin, chunki bunda standart va hisoblash aniqligi yetakchi o'rinda turadi. Tarixiy yoki badiiy matnda esa an'anaviy birlikni darhol zamonaviy metrik muqobil bilan almashtirish davr muhiti, turmush tarzi yoki obrazlilikning bir qismini kamaytirishi mumkin. Aksincha, manba tilidagi birlikni izohsiz saqlab qolish ham o'quvchi uchun tushunarsizlik tug'diradi. Shu sababli tarjimon birlikning ayni kontekstdagi asosiy vazifasini — aniq son qiymati, tarixiy ma'lumot, madaniy ishora yoki obrazli bahoni — aniqlab, tarjima usulini shunga qarab tanlashi kerak (House, 2015).

O'lchov birliklari bilan bog'liq ma'no taraqqiyotini faqat bir yo'nalishda kechadigan jarayon deb bo'lmaydi. Standartlashtirish konseptuallashtirishga ta'sir qilgani kabi, til va diskurs ham jamiyatning o'lchash odatlariga qayta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Keng tarqalgan ibora yoki metafora o'lchov birligining lug'aviy qiyofasini o'zgartiradi, tarixiy birlik badiiy adabiyot orqali yangi avlodga qayta tanitiladi, ilmiy termin esa kundalik nutqqa o'tib, yangi baholovchi ma'no olishi mumkin. Shu sababli tahlilda ketma-ketlik bilan birga qayta ta'sir va semantik yangilanish ehtimolini ham hisobga olish zarur. Nazarimizda, aynan shu jihat o'lchov birliklarini statik nomlar emas, balki til va madaniyat taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi leksik birliklar sifatida ko'rishga imkon beradi.

5. XULOSA. O'lchov birliklarini kognitiv-lingvistik nuqtai nazardan o'rganish ularni faqat metrologik qiymat yoki leksik tasnif doirasida tavsiflash bilan cheklanmaslikni talab qiladi. *Meter, mile, inch, qarich, qadam, gaz va tanob* kabi birliklar muayyan miqdorning oddiy nomi emas, balki insonning borliqdagi miqdoriy farqlarni idrok etishi, qiyoslashi, kategoriyalashi va ularni jamiyat tomonidan qabul qilingan mezonlar asosida tartibga solishi natijasida shakllangan lisoniy vositalardir. Shu bois ularning semantik tuzilishida aniq miqdoriy qiymat bilan bir qatorda tana tajribasi, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy amaliyot va milliy-madaniy tasavvurlar ham aks etadi. Tahlil o'lchov ma'nosini tushuntirishda obyektiv xususiyatlar, idrok va qiyoslash, kognitiv kategoriyalash, madaniy standartlashtirish, lisoniy konseptuallashtirish hamda diskursiv voqelanishni o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida ko'rish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Mazkur ketma-ketlik qat'iy tarixiy bosqichlar majmui sifatida emas, balki tadqiqotda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan tahliliy yo'nalishlar sifatida taklif etildi. Bu yondashuv o'lchov birligi miqdoriy bilishning boshlang'ich nuqtasi emas, balki tajriba, qiyoslash, ijtimoiy kelishuv va lisoniy mustahkamlanish natijasi ekanini aniqroq tushuntirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cassirer E. The Philosophy of Symbolic Forms. Vol. 1: Language / Trans. by R. Manheim. – New Haven: Yale University Press, 1955. – Original work published 1923.
2. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
3. Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm / Ed. by The Linguistic Society of Korea. – Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982. – P. 111–137.
4. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London; New York: Routledge, 2015.
5. Johnson M. The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason. – Chicago: University of Chicago Press, 1987.
6. Kant I. Critique of Pure Reason / Trans. by P. Guyer, A. W. Wood. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – Original work published 1781/1787.
7. Kubryakova E. S. Nachala kognitivnoy nauki o yazyke. – Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004.
8. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987.
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987.
11. Langacker R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008.
12. Madvaliyev A. (tahr.). O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
13. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: Turkiy so'zlar. – Toshkent: Universitet, 2000.
14. Rosch E. Principles of Categorization // Cognition and Categorization / Ed. by E. Rosch, B. B. Lloyd. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. – P. 27–48.
15. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
16. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1992.